
“VAHOBJON OTA KO’RKI” FERMER XO’JALIGI PAXTA TAYYORLASH SHARTNOMA REJASINI ZIYODI BILAN UDDALADI.

Jami 30 gektar paxta yer maydonlarida shu kungacha 123 tonna paxta terib olinib reja birinchi terimning o‘zidayoq bajarildi.

Birinchi terimda har gektar yerdan 40 syentnerdan hosildorlik olishga erishdik, -deydi xo‘jalik rahbari Shaxobiddin Umarov.- Har kuni 70-100 nafar terimchi paxta terimiga jalb etildi. Terimchilarga paxta dalalarda barcha shart-sharoitlar yaratib bermoqdamiz. Terilgan paxtaga o‘z vaqtida to‘lovlar amalga oshirildi. Har kilo paxta uchun 1700 so‘mdan terim puli berilmoqda. Hali paxta dalalarida hosil mo‘l, terim sur‘atini pasaytirmasdan paxtani yig‘ib-terib olmoqdamiz.

Bugun fermer xo‘jaligida terimchilar uchun taqdirlash marosimi tashkil etildi. Tadbirda paxta terim mavsumida ilg‘or qatnashganlarga qimmatbaho sovg‘alar hamda pul mukofotlari topshirildi.

2022-10-05 19:24:17